

**JAHONNING RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDA  
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI  
INVESTITSIYALARING O'RNI**

**Abdibositova Muxlisaxon Latayibxonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

*E-mail: [abdibositovamuhlis@gmail.com](mailto:abdibositovamuhlis@gmail.com)*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 10.12.2024*

*Revised: 11.12.2024*

*Accepted: 12.12.2024*

**KALIT SO'ZLAR:**

*kichik va o'rta  
biznes, investitsiyalar,  
innovatsion  
infratuzilma, texnologik  
klasterlar, davlat-  
xususiy sheriklik,  
O'zbekiston.*

*Mazkur maqola jahon tajribasida kichik va o'rta biznesni rivojlanirishda investitsiyalarining o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalg qilish bo'yicha ilg'or tajribalari o'rganiladi. Germaniya, Janubiy Koreya, AQSh va Xitoy kabi davlatlar misolida innovatsion infratuzilma, texnologik klasterlar va davlat-xususiy sheriklik modellari orqali investitsion faollikni oshirish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Hindiston va Braziliyaning kichik biznesni moliyalashtirishga qaratilgan davlat dasturlari ham tahlil qilinadi.*

*Maqolada O'zbekiston sharoitida jahon tajribasini qo'llash imkoniyatlari, xususan, texnologik klasterlar yaratish, vechur kapital bozorini rivojlanirish va eksportga yo'naltirilgan investitsion dasturlarni joriy qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning investitsion faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.*

**KIRISH.** Kichik va o'rta biznes zamonaviy iqtisodiyotning assosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlikni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalar kichik va o'rta biznesni rivojlanirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki ular yangi texnologiyalarni

joriy qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beradi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan" shu jumla keltirib o'tilgan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun samarali investitsion siyosatni amalga oshiradi. Ushbu maqolada jahon tajribasi tahlil qilinib, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdagi investitsiyalarning o'rni ko'rib chiqiladi.

### **2020-2024 yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitiyalar oqimi**

Yil	Rivojlangan mamlakatlar (mlrd. AQSh dollar)	Rivojlanayotgan mamlakatlar (mlrd. AQSh dollar)
2020	379	663
2021	746	837
2022	564	645
2023	513	587

### **Investitsiyalar va kichik biznes: umumiyo ko'rinish**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy infratuzilmani yaxshilash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab borish va samarali faoliyat yuritishiga erishish hamda inflyatsiyani cheklash, aholini bandlik bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish uchun eng samarali yondashuv bu investitsiyalarni keng jalb etishdir.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtidan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'll bilan respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantirish yo'lli bilan investitsiyalarni, ko'proq, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan

Hozirgi vaqtda investitsion mablag'larning manbalari turli xil bo'lib, asosan ikki turga, ichki va tashqi turga bo'linadi. Tashqi investitsion manbag yuqorida ta'kidlangan xorijiy investitsiyalar, tashqi kredit va qarzlar kabilarni qamrab oladi. Ichki investitsion

mablag“larga aholi, korxonalar, tijorat banklari va davlatning jamg“armalari asosida tashkil etiladi. Iqtisodiy tarmoqda barcha investitsion turdag'i mablag“lari tomonidan asosiy kapital va boshqa sohalarga kiritilgan sarmoyalar iqtisodiyotni rivojlanishiga sabab bo“ladi.

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda investitsiyalarning asosiy vazifasi — iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish va yangi ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratishdir. Investitsiyalar turli ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:

- Moliyaviy investitsiyalar: aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalar orqali kapital jalb qilish
- Real investitsiyalar: ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yoki yangi texnologiyalarni joriy qilishga yo‘naltirilgan moddiy sarmoyalar
- Innovatsion investitsiyalar: ilmiy-tadqiqot ishlari va texnologik yangiliklarni moliyalashtirish .

Jahon tajribasi kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy barqarorlik va o‘sishdagi rolini tasdiqlaydi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya va AQShda kichik biznes milliy iqtisodiyotning 90 foizdan ortig‘ini tashkil etadi va ish o‘rinlarining katta qismini ta’minlaydi

## Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi

### 1. Germaniya tajribasi

Germaniya kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda investitsiyalarni samarali jalb qilishning yorqin namunasidir. Germaniyada kichik biznes milliy iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu davlatda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashda quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

- Davlat tomonidan moliyalashtirish: Germaniya Taraqqiyot banki kichik biznesga uzoq muddatli kreditlar taqdim etadi. Ushbu kreditlar past foiz stavkalari bilan ajratiladi va kichik korxonalarga barqaror rivojlanish imkonini beradi.
- Innovatsion infratuzilma: Germaniyada texnoparklar va biznes-inkubatorlar kichik va o‘rta biznes subyektlariga yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun qulay sharoit yaratadi

### 2. Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreyada kichik biznesni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Koreyaning yondashuvi quyidagilar bilan ajralib turadi:

- Texnologik klasterlar: Texnologik klasterlar kichik biznesga ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi
- Eksportga yo‘naltirilgan strategiyalar: Koreyada kichik biznes subyektlari eksportni rivojlantirish uchun davlat tomonidan moliyalashtiriladi

- Xalqaro hamkorlik: Janubiy Koreya xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi, bu esa xorijiy investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi

### 3. AQSh tajribasi


AQSh kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha eng ilg‘or mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda kichik biznes uchun investitsiyalar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Venchur kapital bozori: Venchur kapital AQShda kichik biznesni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu moliyalashtirish texnologik startaplarni rivojlantirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi
- Kichik biznes administratsiyasi (SBA): SBA kichik biznes uchun maxsus moliyaviy dasturlarni amalga oshiradi va ularga davlat grantlari ajratadi

### 4. Xitoy tajribasi

Xitoy kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik modelidan samarali foydalanadi. Ushbu yondashuv kichik biznesga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Soliq yengilliklari: Xitoy kichik biznes subyektlariga keng qamrovli soliq imtiyozlari beradi.
- Eksportni qo‘llab-quvvatlash dasturlari: Kichik biznes subyektlari uchun eksportni rivojlantirish bo‘yicha davlat subsidiyalari ajratiladi



**Manba:** Muallif tomonidan ma’lumotlar asosida tuzilgan.

<sup>16</sup> Manba: Muallif tomonidan ma’lumotlar asosida tuzilgan

Ushbu jadvaldan ko'riniib turibdiki, Xitoyda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi berilgan yillar oralig'ida o'sib tushgan. 2019-yilda umumiy investitsiya 136,91 milliard Aqsh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 16,8 millard Aqsh dollariga oshganini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilga kelib esa ushbu miqdor oshgan va 178,82 milliard Aqsh dollarini tashkil etgan. 2022-yilda investitsiya hajmi 163,12 milliard Aqsh dollarini tashkil etib, pasayishni kuzatishimiz mumkin. Oxirgi 2 yilda bu miqdor mos ravishda 180,62 va 166 milliard Aqsh dollarini tashkil etgan.

### **Rivojlanayotgan davlatlarning tajribasi**

#### **1. Hindiston tajribasi**

Hindistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshiriladi:

- Mudra dasturi: Hindiston hukumati kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish uchun past foizli kreditlar taqdim etadi
- Texnologik inkubatorlar: Kichik biznesni innovatsion yo'nalishda rivojlantirish uchun texnologik inkubatorlar tashkil etilgan

#### **2. Braziliya tajribasi**

Braziliyada kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan moliyalashtiriladigan dasturlar faol amalga oshiriladi:

- BNDES fondi: Braziliya Taraqqiyot banki kichik biznes subyektlariga uzoq muddatli moliyaviy yordam ko'rsatadi
- Mahalliy innovatsion markazlar: Innovatsion markazlar kichik biznes uchun texnologik yangiliklarni joriy qilishga yordam beradi.

#### **O'zbekiston uchun xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari**

O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribadan foydalanish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Texnologik klasterlar tashkil etish: Koreya tajribasi asosida texnologik klasterlar sonini oshirish.
- Innovatsion moliyalashtirish: AQShning venchur kapital bozorini rivojlantirish modeli asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish
- Eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari: Xitoy tajribasiga asoslanib, kichik biznes uchun eksportni rivojlantirish dasturlarini kengaytirish.

#### **Xulosa**

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy va AQSh kabi mamlakatlar

tajribasi kichik biznesni rivojlantirishda samarali investitsion strategiyalarni joriy qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. O'zbekiston ushbu tajribalarni o'r ganib, ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali kichik va o'rta biznesni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Federal Ministry for Economic Affairs and Energy (BMWi). "Supporting Small and Medium-Sized Enterprises in Germany." Berlin, 2021.
2. Korea Development Institute. "Technological Clusters and Foreign Investment Strategies." Seoul, 2021.
3. U.S. Small Business Administration (SBA). "Federal Resources for SME Development." Washington, 2021.
4. Ministry of Commerce of the People's Republic of China. "Policies for SME Growth and Investment Attraction." Beijing, 2020.
5. Hindustan Economic Development Agency. "Mudra Loan for SMEs." Delhi, 2020.
6. Brazil National Development Bank (BNDES). "Long-term Funding for Small Enterprises." Rio de Janeiro, 2020.